

Fayzullaev Xolmo'min,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

QISSADA "TABIAT YO'RIG'I" KONSEPSIYASI

Normurod Norqobilov ijodida shunday asarlar borki, ularda tabiat vakillari odamzod jamiyat qoidalari bo'yicha yashashlari, bashariy qonunlarga tajovuz qilmasliklari haqidagi ona tabiat falsafasi naturalistik uslubda badiiy tasvir etiladi. Bu falsafa yozuvchining "Oqbo'yin", "Paxmoq", "Changalzor iti", "Ovul oralagan bo'ri" qissalarida ham o'z aksini topgan, albatta. Ammo quyida tahlilga tortish nazarda tutilayotgan qissada ayni jihat keng rakursda, naturalistik tasvir prinsiplariga qat'iy rioya qilingan holda badiiy talqin etilgani aniq bilinadi. Bu qissa yozuvchining so'nggi yillarda yozilgan yirik qissalaridan bo'lib, 2019-yili "Sharq yulduzi" jurnalida nashr etilgan.

"Qorabo'ri" qissasining sujet markazida o'ziga xos fe'l-atvori, fiziologik tuzilishi noyob bir jondor – Qorabo'ri turadi. Qissaning tezis jumlasidan tortib, sintezigacha, tuguni, kulminatsion nuqtasidan tortib, yechimigacha shu obraz ishtirokida shakllantirilganiga guvoh bo'lamiz.

Asarning birinchi jumlasida "Qo'tonni tark etgan yirtqichlar qirlardan biri yag'rinida oyoq ilgach, to'da sardori Qorabo'ri tuni bilan yog'ib, sahar oldi tingan momiqdek yumshoq qor ustida cho'nqayishgan, go'yoki bir soatcha burun yuz bergan mudhish voqeadan hanuz o'zlariga kelolmayotgandek, biri qo'nishib, biri mung'ayib, boshqa biri esa xuddi arazlaganday hurpayishib turgan sheriklaridan tumshuq burib, o'ng qavatida, turqing qursin, deganday qorga yarim ko'milib, ters o'girilib yotgan jufti haloli Oqparchaga nazar tashlar ekan, uning e'tiborini o'ziga qaratish ilinjida past ovozdada avval irillab, so'ngra dardchil bir ohangda cho'zib ingrashdi". Har bir badiiy asarda birinchi jumla muhim o'rin tutadi. Talantli prozaiklar birinchi jumlagacha katta badiiy-konseptual yuk qo'yadilar. Mana shu jumla butun asar davomida yoyilib borib, oxirida so'nggi jumla bilan tutashishi kerak. Agarki ilk jumla bilan so'nggi jumla badiiy-mantiqiy aloqadorligini saqlab qololmasa, bunday asar to'laqonli hisoblanmaydi. N.Norqobilov asarlarida birinchi va so'nggi jumla muvozanati doimo saqlanib kelingan. Filologiya fanlari doktori Uzoq Jo'raqulov "Osoyish ayyomi" nomli maqolasida Nurulloh Muhammad Raufxonning "Etakdagi kulba" hikoyasini tahlil qilgan ekan shunday yozadi: "Darhaqiqat, "Etakdagi kulba" voqeasi shunchaki "kechmaydi", aynan "sodir bo'ladi". Negaki, qishloq ahli chaqmoqdek kelib-ketgan voqea mohiyatini anglab-anglamay qoladi. Agar hikoyaning birinchi jumlasida: "Jimjit qishloqqa (bu o'rinda qishloq so'zining bosh harfda berilishida gap ko'p. – U.J.) jimjitlikni buzib o'xshovsiz bir devona oraladi", deb boshlanishi, so'nggi jumlaning "Xuddi aslida bo'lmaganday..." (Sharq yulduzi, 2010, 1-son) tarzida

uch nuqta bilan yakunlanishini hisobga olsak, bosh va so'nggi jumlar hikoya-metaforaning tayanch modeli – qolip jumlar ekani oydinlashadi". Filologiya fanlari doktori Umida Rasulova esa birinchi jumla masalasiga badiiy publitsistik tavsif beradi. Bu haqda: "Yozuvchi asar sarlavhasini, birinchi jumla-yu strukturani tafakkurida, tasavvurida tug'ilganidan boshlab parvarishlaydi", degan so'zlarni yozadi.

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Komiljon Hamroyev "Hikoya kompozitsiyasi" degan monografiyasida ilk va so'nggi jumla muammosini maxsus o'rgangan. Jumlaning asar kompozitsiyasi va sujetida tutgan o'rniga ko'ra o'n to'rtta shaklini ajratib ko'rsatgan. Ayniqsa, bular ichida "peyzaj jumla", "xarakter jumla", "detal jumla", "portet jumla", "tugun-jumla", "harakat-jumla", "kulminatsion jumla", "yechim-jumla" shakllarining ta'rifi va ilmiy dalillanishi o'ziga xos. Ammo tadqiqotchi masalaning ko'proq hikoya janri bilan aloqador jihatlarga e'tibor qaratgani sababli u ajratib ko'rsatgan jumla shakllari barcha nasriy janrlarni birdek qamrab ololmaydi. Bunday fikr bildirishimizning boisi shuki, "Qorabo'ri" qissasidan keltirilgan birinchi jumla K.Hamroyev taqdim etgan jumla shakllarining birontasiga tushmaydi. Biz buni jumla mohiyati va qissa sujetida tutgan o'rniga qarab, "tezis-jumla" va "holat-jumla" tarzidagi ikki xususiyatga ega ekanligini ta'kidlamochimiz. Uning tezis-jumla ekanligi shunda ko'rinadiki, ushbu jumlada to'da falsafasi va to'daga xos tabiat qonuni tezis tarzida ifodasini topgan. Ilk jumladanoq aniq bilinadiki, garchand Qorabo'ri to'da sardori bo'lishiga qaramasdan, o'z jamoasi fe'l-atvori, istagi, xohish-irodasiga qarab ish ko'radi. Tabiatdagi barcha to'dalar, hatto yirtqich bo'rilar ham to'da qonuniga bo'ysunib yashaydilar. Holat-jumla xossasi esa, ayni damda bo'rilar to'dasi ichida noxush bir voqea ro'y berganini, ularning psixologik vaziyati unchalik yaxshi emasligida ko'rinadi. Buni to'daboshi Qorabo'ri juda yaxshi his qiladi. Shuning uchun avval to'da a'zolari, keyin juftiga xijolatomuz qaraydi. Bundan ko'rinadiki, ushbu psixologik vaziyatning sababchisi Qorabo'ri o'zi. To'g'rirog'i, o'tmishda qilgan bir "gunohi". Shu jihatdan jumla badiiy tezisga xos mohiyat kasb etishi bilan birga katta tabiat falsafasini ham namoyon etadi.

Qissa qahramoni Qorabo'ri tabiiy instinkti bilan jamiyat qoidalariga qarshi bormaslikka urinib yashaydi. To'dani ham shu mantiq asosida tarbiyalab boradi. Qoidabuzarlarni shafqatsiz jazolaydi. Ammo o'zi bilmagan holda tabiatning yozilmagan, ulkan bir qonuniyatiga xilof ish qilib qo'yadi. Yozuvchi bunda yirtqichga xos nafsdan-da yomonroq xavf, odamlar

nafsini asosiy sabab qilib ko'rsatadi. Yozuvchi bu holatga qissaning uchinchi jumlasida ochiq-oydin ishora beradi: "Qorabo'ri chindan ham gunohkor – sheriklari va ayniqsa, suyuqli jufti Oqparcha oldida aybi katta – bu tun sahar oldi to'daning yovqur a'zolaridan biri bo'lmish Govbosh uning xiyonati mevasi ermish Bo'ribosar changalida ajal topgandi. Qorabo'ri, xuddi bu hodisani xayoliga doritgisi kelmaganday, qorni iskash asnosida bu karra Oqparchaga ko'zi ostidan razm solarkan, bundan ikki yil narisida o't-olovli nafs yo'rig'iga bo'ysinib, yo'l qo'ygan jiddiy xatosi – odatda, bo'rilar hayotida kamdan-kam kuzatiladigan qilmishi hamda aynan ushbu qilmishining qonli natijasi ermish bugungi fojea ona bo'ri bag'rini ayovsiz ravishda tirmab-tirmalayotganini go'yoki juda teran his etayotganidek, tag'in ingrashdi".

Qissa muallifi "gunoh" deya atayotgan bu hodisa nimadan iborat edi?

Ko'pchilik biladiki, cho'ponlar, dala qorovullari, oddiy odamlar orasida ham bo'ridan urchigan it bo'ribosar bo'ladi degan gap yuradi. Ko'pchilik bu ishga muhim, havas qilarli hodisa deb qaraydi. Ba'zi birovlarning yaxshi bir zotdor itni bo'ri bilan qo'shib, bo'ribosar parodiya olgani haqida ham ko'p eshitganmiz. N.Norqobilov qissasidagi tabiat va inson falsafasining mohiyati shundaki, unda aynan shu qarash qoralanadi. Buni tabiat qonunlariga xiyonat deb baholanadi.

Qissada Qora bo'rining bunday oqibati yomon gunohga borishi jarayoni shunday psixologik tasvir etiladi: "O'sha kuni Qorabo'ri, qoni jo'shgandan-jo'shib, jismi-jonini bamisli o'tdek yondirayotgan nafs yo'rig'iga bo'ysingancha, ini to'rida, mayin qum ustida dard chekib yotgan Oqparchani yolg'iz tashlab, telbalarcha dashtga intilgan va bir necha do'ng oshib-oshmay, to'satdan kuyikkan qanjiq it hidini tuygandi. Azaldan ma'lumki, iliqish paytida jonzotlar uchun bundan yoqimli, bundan totli hamda bundan jozibali hidning o'zi yo'q. Bu isni ilg'agan va unga asir bo'lgan jonivor borki, bunday kezda shirin jonidan voz kechsa kechadiki, lekin aslo yo'lidan qaytmaydi – hech bir kuch uni to'xtata olmaydi". Bunda muallif bo'ri, balki umuman hayvonot psixologiyasini nozik badiiy tahlil etadi. "Iliqish payti" hayvonlar instinkti hech qanday kuch to'sa olmaydigan darajada qudratli bo'lishini "shirin jonidan voz kechsa kechadiki, lekin aslo yo'lidan qaytmaydi", deya haqqoniy, naturalistik usulda tasvirlaydi.

Shu ishdan keyin bo'rilar to'dasiga falokatlar yog'ila boshlaydi. To'daning chapdast a'zosi Govbosh halok bo'ladi. Bo'rilar hayoti xavf ostida qoladi. Ona bo'ri Oyparcha bu gunoh ustida bo'lmagan bo'lsa-da, instinkt bilan voqeani yaxshi angelaydi. Shunig uchun Qora bo'ridan ranjiydi. Insonlar jamiyatida bunday xatolar kechiriladi. Tabiat olamida esa bunday xatolarning kechirilishi qiyin. Chunki tabiat va hayvonot olamidagi birgina xato hayot qiymati bilan o'lchanadi. "O'sha qirovli tongda, chetdan qaralganda, yirtqichlar ura qochib, qora it boshchiligida, otar itlari ularni quvlagan bo'lgan.

Aslida esa...

Qorabo'ri itlardan emas, Oqparchaning to'fonlangan rashkidan qochgan.

G'azab ustida jufti haloliga jiddiy ziyon yetkazib qo'yimaslik vajidan, xuddi aqlidan ko'ra nodonligi ustivor bo'lgan yosh bo'rilariday, oldiga tushib qochgan. Keyin hafta davomida uning ko'ngliga yo'l topolmay, rosa sarson bo'lgan". Mana shu voqea bilan bog'liq yana bir o'ziga xos tasvir. Bo'rilar aslida Qorabo'rining it avlodi bo'lgan Bo'ribosar qo'riqlaydigan qo'raga hujum uyushtiradilar. Ularning yo'l boshchisi, eng dovi va eng kuchlisi bo'lgan Qora bo'rida shu joyda olis otalik hissi uyg'onadi. Bo'ribosarni mahv etish u yoqda tursin, to'dani boshqarishga ham yaramay qoladi. Oqibat esa yuqorida aytilganidek yomon ahvol yuzaga keladi.

Bo'rilar jamiyat qonunlarini hurmat qiladi. Ochdan o'lgan taqdirda ham o'zi yashaydigan hududdagi birona qo'raga hujum qilmaydi. Ammo Qorabo'ri nafs kasofati bilan vaziyat shu darajada teskariga aylanib ketadiki, endi bo'rilar shu qonunni buzishga majbur bo'ladilar. Qonunlar ortidan qonunlar buzilaveradi. Tabiat muvozanati buzila boshlaydi.

Yana takror aytamizki, bunda garchand katta gunohga yo'l qo'ygan bo'lsa-da Qorabo'ri gunohkor emas edi. Bunda bor-yo'q ayb odamlar, ularning hakkalak otgan nafslarida edi. Ammo tabiat odamlarning bunday qilmishlari uchun o'ch olmay qo'ymaydi. Buni asl tabiat kishilari, tajribali cho'ponlar yaxshi bilishadi. Bilganlari bu qonunni buzishmaydi. Insonlar jamiyatiga xos mana shunday holat qissada shu tarzda ifodalangan: "Qorabo'rining aksi o'laroq, bu tong Botir cho'pon Bo'ribosarning birinchi zafaridan o'zida yo'q darajada shod va masrur edi. Biroq yigitning quvonchi ko'pga cho'zilmadi – jiyani Bahrom cho'liq kichik qirning do'ngga tutash qiyaligida cho'zilib yotgan Govboshning terisini shilib kelgani otlamaytib, uning shodligiga muzdek sovuq suv sepib ketdi. Yo'q-yo'q, shunchaki sovuq suv sepmadi, Botir cho'pon nazdida, ilon kabi vishillab, zahrini sochib ketdi". Xo'sh Bahrom cho'liq (o'rganuvchi, yordamchi cho'pon) Qorabo'ridek zotdor bo'ridan Bo'ribosar urchitgan, bo'ri galasini tirqiratgan Botir cho'ponga nega "ilondek vishillab zahrini sochdi?". "Holbuki, tabiatan kamgap, kamsuqim" edi Bahrom cho'liq. Bundan jamiyat naf ko'rayotgan edi-ku aslida. Chunki Bahrom cho'liq bobolar an'anasini biladi va qittiq ushlagan. Botir cho'pon esa yangi zamon kishisi. Bunday an'analar unga afsona bo'lib tuyuladi. Oqibatda tabiat qonunini buzishdan ham toymaydi. Botir cho'pon qilgan xatosini tuyqus angelaydi. Yoshlik xotalariga qaytadi: "Chatoq bo'ldi, tog'a, chatoq bo'ldi! Jondorlar bilan oramiz buzilgani judayam chatoq bo'ldi!" Bu gap Botir cho'ponga birdan emas, saldan keyin ta'sir etdi va ko'hna xotiralarini qayta qo'zg'alishiga sabab bo'ldi. Chunki bu achchiq haqiqatni birinchi bo'lib marhum otasi To'lagan cho'pon aytgan edi. Bahrom cho'liq singari afsus va nadomatli ohangda emas, to'satdan g'azabi qo'zib, boplab savalamoq uchun yonidagi govronni qo'lga olib, har bir so'ziga alohida urg'u

berib, aytgan edi: "Hali sen jondorlar bilan oramizni buzmoqchimisani?!". Bu falsafa bugungi o'quvchiga qiziq va ishonarsiz bo'lib tuyulishi mumkin. Haqiqatdan ham, inson bilan jondorlar orasi ham buzilishi mumkinmi? Bundan nega qo'rqish kerak? Ha, jondorlar insoniy jamiyat qonunlariga qanday amal qilishsa, insonlar ham bu bitimga xiyonat qilmasliklari lozim. Aks holda, yuqorida tahlil qilingan "tog'dagi odam" hikoyasidagiga o'xshab borliq qonuniyati buziladi. Oqibat tabiat ham, odam ham faqat zarar ko'radi. Mana N.Norqobilovning "Qorabo'ri" qissasi bilan aytmoqchi bo'lgan badiiy konsepsiyasi, inson va tabiat haqidagi ulkan falsafasi. Bu falsafani yozuvchining o'zi to'qib chiqarmagan va tagi bo'sh zaminda turib aytmagan, albatta. Asar haqidagi shaxsiy suhbatlarimizdan birida yozuvchi bu falsafa u bola bo'lgan davrda cho'ponchilik qilgan keksalarda borligi, hozirgilar bu muhim falsafani unitib qo'yayotganini afsus bilan ta'kidlagan edi.

Tabiatning qonuniy maromi buzilganda uni, albatta, tuzatish kerak. Yo'qsa oqibati ayon. Xo'sh, "Qorabo'ri" qissasida bu ulkan xatoni kim tuzatadi? Botir cho'ponmi, Bahrommi? Afsuski, ular emas, oldamlar tomonidan ongsiz bir yirtqich deb qaraladigan bo'ri, qissa qahramoni Qorabo'ri o'zi tuzatadi. O'zidan to'ragan Bo'ribosarni o'z panjalari ostida halok etadi. Asar so'nggida bu voqea shunday tasvirlanadi: *"Arloni o'tkir tirnoqlari bilan toshga tirmashib, yuqoriga intilar ekan, o'sha asnodan raqibining o'tli, yovuz nigohini shundoq boshi tepasida, juda yaqindan ko'rdi. Ko'rdi-yu... Yo'q, adadsiz qahrga to'la bu ko'zlar ko'nglida royishlik hisini tug'dirgan zurriyotining ko'zlari emas – butunlay begona edi. Bu ko'zlar ikki dunyoda o'ziga mehr ila boqmas va boqa olmasdi ham!"* Shunday, Qorabo'ri o'z zurriyotini ayovsiz jangga chaqiradi. Jang asnosida qondoshlik qonuniyatlari faqat tabiat qonunlariga rioya qilingan taqdiridagina yashab qolishi, mobodo bu qonun buziladigan bo'lsa hamma qadriyatlarga putur yetishini anglaydi. *"Ana shunda Qorabo'ri... jufti haloli Oqparchani, ayni lahzada jonini olmoq qasdida guvranayotgan ushbu yaramas maxluqni deya o'zini tark etib, to'daning to'zib ketishiga sababchi bo'lgan sheriklari hamda uning changalida ajal topgan sho'rlik Govboshni yashin tezligida xayolidan o'tkazadi"*. Xatoni hech ikkilanmay tuzatish lozimligini anglaydi. Bu maxluq

hech qachon, hech kimga, na odam, na jondorga do'st bo'lmasligini oxirgi lahzalarda tushunib yetadi. O'zining sharafli vazifasini jonini qurbon etish evaziga amalga oshiradi: *"yuragi qa'rida dimlanib yotgan qahr-u g'azabi birdan vulqonday jo'shib, yag'riniga og'iz solmoqqa uringan qora itning bo'g'zidan g'archcha tishlab, go'yo qilgan qilmishimga joni ila javob bermoqqa ahd va jahd qilganday, o'z zurriyotini pastga tortganicha, quyiga, o'limning sovuq bag'riga quladi"*.

Aslida muqaddas qonunga qarshi borgan, tabiat muvozanatini buzgan odam bolalari bu xato uchun mas'ullar. Ammo ular bu ish oqibatini emas, bugunnigina o'ylaydilar, o'z nafslarinigina parvarishlash bilan ovoralar demoqchi bo'ladi yozuvchi quyidagi tasvir bilan: *"Bu paytda otarni tungi yoyilmaga haydab chiqqan Botir cho'ponning ikki ko'zi yetimcho'qqi tarafda edi. Boya itning sassiz, imi-jimida jo'nab qolgani hamda Qorabo'ri uni o'chganidan u shu o'yda edi: "Oh-oh, Bo'ribosarginam jondorni korini qilganga o'xshaydi!"*

U bundan o'zida yo'q xursand edi.

Chunki u odam edi.

Yo'q, u shunchaki bir yaratiq edi..."

Yozuvchining biz yuqorida ta'kidlagan falsafasi keltirilgan matnda ochiq-oshkora aytilmaydi. Balki o'nta so'z tarkibida yashirinib yotgan kinoya va afsusda o'z ifodasini topadi: "Chunki u odam edi... Yo'q, u shunchaki yaratiq edi..."

Xulosa: yozuvchi qissalaridagi talqinga ko'ra, tabiatning yuragi o'zini ardoqlagan odamlar bilan uyg'un holatda urib turadi. Unga xiyonat qilganlardan tabiatning o'zi o'ch oladi. Ammo bunday nozik holat-hodisalarni fan tushuntirib bera olmaydi. Hatto aynan shu jihatlarni o'rganishga qaratilgan parapsixologiya ham bu borada faqat taxmin qiladi, xolos.

N.Noqobilovning faqat markaziy obrazi inson bo'lgan qissalarida emas, hayvonot duyoysi vakillari turgan qissalarida ham shu kabi yirik, zalvorli falsafiy aniliz hamda talqinlarni kuzatish mumkin.

"Qorabo'ri" qissasining boshqa barcha voqealari shu bosh tezis asosida uyushtirilgan. Yozuvchi ularni tartib bilan, odamlar dunyosiga bog'lab uyushtirgan. Aytmoqchi bo'lganki, odamlarning ichidagi nafs qutqusi va "tabiat yo'rig'i"ga xilof ish qilish istagi bora-bora hayvonotga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin.

¹ Norqobilov N. Qora bo'ri. Qissa // Sharq yulduzi jurnali, 2019. №11. – B. 8.

² Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2015. – B. 220.

³ Rasulova U. Birinchi jumla mas'uliyati // Sharq yulduzi jurnali, 2004. - №6. – B. 58.

⁴ Hamroyev K. Hikoya kompozitsiyasi. Monografiya. – Toshkent: Nurafshon business, 2020. – B. 106-110

⁵ Norqobilov N. Qora bo'ri. Qissa // Sharq yulduzi jurnali, 2019. №11. – B. 8.

⁶ Shu manba. – B. 9.

⁷ Shu manba. – B. 13.

⁸ Shu manba. – B. 14.

⁹ Shu manba. – B. 14.

¹⁰ Yozuvchi bilan suhbatdan. Suhbatning audioyozuvi shaxsiy arxivimizda saqlanadi. 2019. 5-iyun (X.F.).

¹¹ Shu manba. – B. 57.

¹² Шу манба. – Б. 57.

¹³ Шу манба. – Б. 57.